



## KITOBXONLIK TARIXI XUSUSIDA

*Sunbula Qudratova*

*Xalqaro innovatsion universitet talabasi*

*Ilmiy rahbar: Nilufar Xamidova, XIU o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Kitob mutolaasi esa kishida shunday chin insoniy fazilatlarni shakllantirib, uni hayotda o‘z o‘rnini topishga, jamiyatning chinakam a’zosiga aylanishida, dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zero buyuk bobokalonimiz, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy hazratlari ta’kidlaganlaridek, kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir.

**Kalit so‘zlar:** kitobxonlik madaniyati, kitobxonlik darajasi, mutolaa, kitobxon va kutubxona.

**Abstract.** Reading books is of incomparable importance in forming such truly human qualities in a person, helping him find his place in life, become a true member of society, and broaden his worldview. After all, as our great ancestor, the sultan of the word, Alisher Navoi, emphasized, a book is a thankless teacher, the main source of knowledge and spiritual growth.

**Keywords:** reading culture, level of reading, reading, reader and library.

Kitob – insonning fikr doirasini kengaytirib, unga cheksiz ma’naviy-ruhiy ozuqa beradi. Buyuk mutaffakir Abdurahmon Jomiy shunday degan: “Dunyoda kitobdan yoqimliroq do‘st, undan ortiq g‘amxo‘r yo‘q”.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish borasidagi ishlar ko‘lami sifat darajaga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr



etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g“risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi №781-sonli qarori bilan 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o‘tamoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi №781-sonli qarori bilan 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini uch bosqichda amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

I bosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan. Shuningdek, aholi, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o‘rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar ko‘zda tutilgan. Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, “Eng yaxshi kitobxon hudud”, “Eng yaxshi kitobxon mahalla”, “Eng yaxshi kitobxon ta’lim muassasasi» kabi



reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan. Farzand tarbiyasidagi eng asosiy omillardan biri bu kitob mutolaasidir. “Kitob”, “kitobxonlik”, “kutubxona” so‘zlarining o‘zagi aslida arabchadan olingan va bir maqsadga, ya’ni inson ma’naviyatini boyitishga xizmat qiladi. Yurtimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar ham bejizga emas, binobarin, keljak avlodning kamoloti ilm olish, bilimli bo‘lish bilan belgilanadi. Yurtimizda kitobxonlik saviyasi oshishiga, yangidan-yangi sermazmun kitoblar chop etilishiga omil bo‘luvchi muhim odimdir. Ana shunday imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yangidan-yangi nashrdan chiqayotgan sermazmun asarlarni o‘qib borish yoshlarning ongi o‘sishi, tafakkuri teranlashib, o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lishiga imkon beradi. Yana shuni alohida e’tirof etish kerakki, prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus bugungi kunda yoshlarni yanada qo’llab quvvatlovchi muhim omil bo‘ldi. “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish” muhim dasturiamal bo‘lmoqda.

Abu Rayhon Beruniyning qarashlarida “...insonga katta sharaf ko‘rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch armug‘on etilgan. Shu sababdan, insonning ma’naviy qiyofasi uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos bo‘lishi uchun u yuksak ahloqli, bilimli, ma’rifatli bo‘lmog‘i darkor...” – deya ta’kidlangan. Ma’rifat, ziyo, komillikka erishish avvalo mutolaa bilan, ilm-fan sirlarini puxta egallah bilan qo‘lga kiritiladi. Bu borada eng yaqin ko‘makchi kitobdir. Kitob insoniyat tomonidan yaratilgan betakror mo‘jizadir.

Kitob umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘st. Insonning ma’naviy kamolotini ta’minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo‘q. Shu bois azal-azaldan ma’rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilm-u odob sirlarini o‘rganishga chorlab kelishgan. Kitob mutolaasi esa kishida shunday chin insoniy fazilatlarni



shakllantirib, uni hayotda o‘z o‘rnini topishga, jamiyatning chinakam a’zosiga aylanishida, dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zero buyuk bobokalonimiz, so‘z mulkining sultonii Alisher Navoiy hazratlari ta’kidlaganlaridek, kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir.

Darhaqiqat, kitob –ulkan mo‘jiza, unga bo‘lgan mehr- muhabbatimizni doimo oshirib bormog‘imiz, kelgusida o‘quvchi-yoshlar qaysi kasb-hunarni egallamasin badiiy kitoblarni mutolaa qilib, ularga ko‘p kitob o‘qigan hayotni oson anglashi va ilmli bo‘lishini misollar asosida tushintirib boramiz. Biz yoshlarning asosiy vazifalardan biri kitobxon qalbida xalqimizning madaniy-ma’rifiy, tarixiy yodgorliklari, muqaddas qadamjolari, urf-odatlari hamda an’analariga e’tiqod tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilmog‘i lozim. Ko‘p kitob o‘qigan hayotini oson anglashini eslatmochimisiz. Kitob, kitobxon va kutubxona o‘rtasidagi vosita-zanjir bo‘shashib ketmasligiga erishibgina ma’naviy barkamol avlodni shakllantirish mumkin. Kezi kelganda aytish kerakki, hozirgi kunda o‘quvchilarning kitobga munosabati turlicha. Ba’zi “kitobxon”lar borki, olgan kitobini umuman, qaytarishni ham o‘ylamaydi. So‘rasangiz: “Shunga shunchami, o‘zi bir kitob bo‘lsa...” deya ensasi qotadi. Bunday ko‘ngilsiz hollar onda-sonda bo‘lsa-da o‘quvchilar orasida uchrab turadi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti munosabatlari va turli elektron ommaviy axborot vositalari kitobxonni katta adabiyotdan biroz bo‘lsa-da uzoqlashtirayotgani sir emas. Biroq kitob ulkan mo‘jiza ekanligini shogirdlarimizga vaqtida anglatib borishimiz zarur. Negaki, ko‘p kitob o‘qigan bolaning fikrlash doirasi keng, zehni o‘tkir bo‘lib, hayot sinovlariga bardoshli bo‘ladi. Shu bois har birimiz avval farzandimiz, qolaversa, shogirdlarimiz qalbiga kitobxonlik chirog‘ini yoqaylik, toki uning yog‘dusi hamisha yo‘lini yoritib tursin.

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to‘plib avlodlarga yetkazadi. Haqiqatdan ham hech bir manbaa kitob kabi inson kamolotini yuksaltira olmaydi.



Har bir kitobxon o‘z yosh toifasidan kelib chiqib badiiy asarlar yoki ilmiy asarlarni o‘qishi, yoritilgan fikrlarni yanada teranroq anglab yetishiga imkon hosil bo‘ladi. Buning uchun ota-ona, bog‘cha, maktab hamkorligida bolaning qiziqishlari to‘la qonli o‘rganilishi kerak. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona deganlaridek, farzand tarbiyasida, ularning ma’naviyatli madaniyatli bo‘lib kamol topishida barcha birdek mas’ul hisoblanadi. Kitob o‘qishni odat qilmagan oila – ma’naviy qashshoq oiladir deb bezizga aytishmagan. Shunday ekan faqat ota-ona emas balki kutubxona hodimlari ham o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lishi, kitobxonlarga, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda kitob to‘g‘ri kitob tanlab berishi kerak bo‘ladi.

Bizning jonajon do‘stimiz bo‘lgan kitobning tarixiga nazar tashlasak, kitob hozirgi shaklga kelguncha uzoq yo‘lni bosib o‘tgan. Bundan bir necha ming yillar ilgari qadimgi bobilliklar, ossuriyaliklar va boshqa qadimgi dunyo xalqlari kitob sifatida sopollardan foydalanganlar. Xitoyda esa dastlabki kitoblar bambuk daraxtidan qilingan plastinkalarda yozilgan. Keyinchalik Xitoyda shoyiga yozishni, eramizning I asrida esa, qog‘ozga yozishni ixtiroqilishdi. Qadimgi madaniyat beshklaridan biri bo‘lgan Misrda dastlabki kitob matnlari tosh bo‘laklariga o‘yib yozilgan. Sharq xalqlari yuksak madiniyatining namunalaridan biri “Avesto” kitobi ham, dastlab 12 ming qoramol terisidan ishlangan pergamentga yozilgan. O‘rta asrlarda pergament yoki papirus varoqlarini to‘rt buklab, daftar (tetrad, yunoncha “to‘rtlik”) shakliga keltirilgan. Mana shunday daftarlarning bir nechtasini birlashtiririb yaratilgan kitoblar “Kodeks” deb atalgan. Kitobning hozirgi shakliga kelishida kodekslar dastlabki qadam bo‘lgan. Milodiy 1-asr oxirida pergament kodlari haqida birinchi eslatmalar paydo bo‘ladi – aslida sahifalardan iborat kitoblar. Yozuvlardan ustun ustunligiga qaramay, ular faqat milodiy 3-asrga kelib keng tarqaldi. Har yili dunyoda 755755 ta yangi kitoblar nashr etiladi. 2017-yilning o‘rtalaridan boshlab hozirgacha dunyo bo‘yicha 134399411ta kitob nashr etilgan. Bu raqamlar shunchaki raqam emas, biz yoshlarni har tomonlama yetuk inson bo‘lib yetishishimiz uchun qilinayotgan say harakatlar



natijasidir. “Kitob seni hali sen ko‘rmagan dunyoga olib boradi, sen eshitmagan so‘zlarni aytadi” deydi Geytsen. Darhaqiqat, kitob juda ko‘plab sir-sinoatlarga boydir. Uning boyliklari hech ado bo‘lmaydi. Kitob insonga qanot bag‘ishlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kitob eng yaqin do‘stlardan biridir. Biz savollarga kitoblar orqali javoblar topamiz, kitoblar fikrlash uchun eng muhim ozuqadir. Kitoblar eng yaxshi intellektual dam olishga va tasavvurlar parvoziga taklif qiladi. Kitobxonlik – inson tafakkuri, ma’naviy dunyosi va bilim darajasini oshirishning eng muhim vositalaridan biri. Kitob o‘qish insonni tarbiyalaydi, dunyoqarashini kengaytiradi va nutqini ravon hamda mazmunli qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olıyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Zarafshon”, 2018-yil 29-dekabr, 155–156сон.
3. Усмонов Ш. Илм даргоҳига бир назар //Oriental Art and Culture. – 2019. – №. IV (1).
4. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
5. [www.mustaqillik.uz](http://www.mustaqillik.uz)
6. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)